

MUG‘QAL’A ARXEOLOGIK YODGORLIGINING O‘RGANILISH TARIXI

Ra’no Ergasheva

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotation: Ushbu maqolada Namangan viloyatining Kosonsoy shahrida joylashgan Mug‘qal’a arxeologik yodgorligining o‘rganilish tarixi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Ark, shahriston, o‘tov, abargar, Mug‘, tegirmom, nikoh.

Abstract: This article analyzes the history of the Mugkala archaeological monument located in the city of Kosonsoy, Namangan region.

Keywords: Arch, city, grass, abargar, Mugh, mill, marriage.

Аннотация: В данной статье анализируется история археологического памятника Муткала, расположенного в городе Косонсой Наманганской области.

Ключевые слова: Арк, город, абаргар, Муг, мельница, свадьба.

KIRISH

Namangan viloyati Farg‘ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan bo‘lib, g‘arbda Toshkent, janubi-sharqda esa Farg‘ona va Andijon kabi viloyatlar bilan chegaralangan. Bu viloyat O‘zbekiston Respublikasining qadimgi maskanlaridan biri bo‘lib, mahalliy aholining turmush tarzi haqida guvohlik beruvchi turli arxeologik topilmalar va me’moriy yodgorliklar shuningdek, bronza va tosh asr yodgorliklari mavjudligi bilan ajralib turadi. Namangan viloyatida joylashgan Axsikent, Bibi Ona, Uchtepa, Mug‘tepa va Mug‘qal’a kabi arxeologik yodgorliklarda ilmiy izlanishlar jadal tarzda davom ettirilmoqda.

2019-yil 4-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy merosining ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 846-sonli Qarorida Farg‘ona vodiysidagi yodgorliklarning 301 tadan ko‘proq qismida qidiruv ishlari amalga oshirilishi kerakligi haqida ma’lumotlar berilgan. Shu yodgorliklarning 58 tasi Namangan viloyatida joylashgan. Bular orasida albatta, Mug‘qal’a va Mug‘tepa ham joy olgan.

TADQIQOT

Namangan viloyatining Kosonsoy shahri yaqinida joylashgan Mug‘qal’a mil. I – XIII asr boshlariga oid yodgorlikdir. Mug‘qal’a ark va shahriston kabi qismlarga bo‘lingan. Ark va shahriston qismi kuzatuv minoralari va mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, arkda quyosh ibodatxonasi bo‘lgan va bu joy xalifa Mu’tazim davrida (833-842) buzib yuborilgan. 1983-yil shahristonda qidiruv ishlari olib borgan tadqiqotchilarining fikricha, bu joy juda ustalik bilan himoya qilingan va qo‘sishma devor bilan mustahkamlangan. Qal’aning ark qismi shahristonning janubi-

g‘arbiy tomonida, Kosonsoyning tik yon bag‘rida joylashgan. Yodgorlikning maydoni 4 ga.ni tashkil etadi. IX – X asrlarga kelib shahar o‘zining avvalgi siyosiy mavqeini yo‘qota boshladi. So‘ngra u hozirgi Kosonsoy shahrining o‘rniga ko‘chgan hamda Kosonsoyning iqtisodiy-madaniy markaziga aylangan.

Mug‘qal’a ko‘chmanchilar va dehqonlar, qo‘sni davlatlar Sug‘d va Choch o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik edi. Hozirda ham Mug‘dan Sirdaryoga tomon yurilsa boy, unumdar dehqonchilik vohalari yastanib yotadi. Qarama-qarshi tomonda bo‘lsa – tog‘oldi vaadir hududlari bo‘lib, chorvachilik uchun qulay hisoblanadi. Bu haqida Xitoy manbalarida, jumladan, Chjan Syan, Syuan Szyan, arab tarixshunoslari Yaqubiy, Istaxriy va Z.M. Bobur, sharqshunos olimlar N.Y. Bichurin, M.S. Andreyev, V.V. Bartold asarlarida ham ma’lumotlar uchraydi.¹

Mil.avv. II asrning 90-yillaridan keyin Farg‘onaning siyosiy hayotida o‘zgarishlar yuz berdi. Xuddi shu davrda Farg‘ona hududida 10 balli kuchli zilzila sodir bo‘ladi. Shundan keyin Farg‘onaning yangi hukmdori siyosiy poytaxtni yangi joyga – Mug‘tepaga, milodiy eraning VII asrida esa siyosiy poytaxt Mug‘tepadan Farg‘ona shahriga ko‘chiriladi.² Muallif shu joyda qaysi shaharga ko‘chirilganligini biroz mujmal holda aytib o‘tgan. Chunki, e’tibor beradigan bo‘lsak, hozirgi Farg‘ona shahriga Rossiya hukumati Qo‘qon xonligini bosib olish bilan band bo‘lgan bir vaqtida ya’ni, 1877-yilda asos solgan. Shunday ekan muallif qayerni nazarda tutgan bo‘lishi mumkin? VII asrda Farg‘onaga Turk xoqonligining siyosiy ta’siri kuchaygan bir vaqtida, Mug‘tepaning shimolida joylashgan Mug‘qal’a quriladi. Mug‘qal’ada Turk xoqonligining Farg‘ona vodiysidagi vakili Tutuqning qarorgohi joylashgan. Qal’a mustahkam devorlar bilan o‘rab olingan. Qal’aning o‘rtasi xuddi Mug‘tepadagi kabi mahobatli qurilishdan holi. Chunki, bu yerda xoqonlikning vakili Tutuqning hashamatli o‘tov ko‘rinishidagi qarorgohi bo‘lgan.³ Dushman hujum qiladigan tomon qo‘shimcha devor bilan mustahkamlangan. Bu holat g‘anim hujumini har ikki mudafaa devoridan turib qaytarish imkonini bergen. Shahar darvozasi ham aynan she yerda joylashgan edi. Mug‘qal’aning qo‘rg‘on qismi ark va shahristondan keyin qurilgan, undan notinch vaqtarda o‘ziga xos panagoh sifatida foydalangan bo‘lishlari mumkin.

Birinchi bo‘lib Mug‘tepa vayronalarini 1895-yilda N. Sherbina-Kramarenko kelib ko‘rgan. U o‘z hisobotida boy arxeologik qiymatga ega bo‘lgan buyumlar olish mumkinligini qayd etgan. Kosondagi ilmiy izlanishlarni 1946-yili A.N. Bernshtam davom ettirgan. Mug‘tepa va Mug‘qal’a yodgorliklarini o‘rganish 1951-1983-yillarda Y.A. Zadneprovskiy tomonidan olib borildi. Olim o‘z ilmiy izlanishlarida shahar madaniy qatlamlarining mil.avv. II – I asrlar davrini, ya’ni antik davrni o‘rgandi. Qazish ishlari natijasida qadimgi shaharning minorasi qisman ochildi. Y.A.

¹ O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Tom – 5. – O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. T. 2000. – B. 905.

² Anorboyev A. Farg‘onaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o‘rni. – “FAN”. – T.: 2022. – B. 92.

³ Anorboyev A. Farg‘onaning qadimgi shaharlari... – B. 93.

Zadneprovskiy Koson shahri eramizdan avvalgi Davan podsholigining poytaxti bo‘lgan va u IV – VII asrlarda Farg‘ona davlatining markazi hisoblangan, degan fikrni olg‘a surdi. Mug‘qal’ada aytarlik keng ko‘lamda tekshiruv ishlari olib natijasiga ko‘ra, “bu joy o‘zining joylashishi, o‘lchamlari va kuchli devorlari bilan o‘ralgani uchun ham VIII – IX asrda Farg‘onaning “Harbiy poytaxti” degan nomga sazovor bo‘lgan”, deydi.⁴ Bu yerdagi arxeologik qidiruv ishlari 1948-yil, 1982-yil, 1990-yillarda ham davom ettirilgan. Bir necha yillar davomida o‘tkazilgan tekshiruvlar natijasiga ko‘ra, yodgorlikda ikkita davr mavjud bo‘lganligi aniqlandi. Birinchi davrning madaniy qatlami 32sm qalinlikka ega bo‘lib, bunda yashashning eng erta bosqichi qayd etilgan va yana qalinligi 10sm gacha bo‘lgan qamish bilan ham qoplangan. Yashashning ikkinchi davrida madaniy qatlamlar 10sm dan 15sm gacha qalinlikda bo‘lgan. Mudofaa devorining atrofiga qo‘shilgan devorlar aynan shu davrdan boshlab qurilgan.

Binoning devorlari qal’a devorining yo‘nalishi bo‘yicha qurilgan bo‘lib, janubi-g‘arbdan shimoli-sharqqa tomon og‘ish holati kuzatilgan. Perpendikul holatidagi devorning janubi 1-xona, shimoli 2-xona deb belgilangan. 2-xonaning janubi-sharqiy burchagida 90 sm balandlikda va 50 sm kenglikda ichki zalga eshik qo‘yilgan. Devorlarning qurilishida asosan paxsa va xom g‘ishtda foydalanilgan. Mudofaa devorining pastki qismi 2,2 m bo‘lgan paxsa, yuqori qismi esa xom g‘isht bilan qurilgan. Poydevordagi mudofaa devorining qalinligi 3,4-3,6m atrofida bo‘lgan, yuqori qismi vayron bo‘lgandan keyin esa 1,4m balandlikdagi holati saqlab qolingga. Bu yerda bir qancha o‘choq qoldiqlari ham aniqlangan bo‘lib, janubiy devorning g‘arbiy qismida 1-o‘choq, sharqida esa 2-o‘choq joylashgan. 1-o‘choqning diametri 30 smni, markazi 5 smni tashkil qilgan. Bo‘ylama devorning qalinligi 80 sm gacha, balandligi 40 sm gacha bo‘lgan o‘choqning tag qismidan janub tomondan kelgan 22 sm, 10 sm, 32 sm bo‘lgan katta toshlar aniqlangan.⁵

O‘rta asrlarga oid sirli sopol qoldiqlari bilan birgalikda tosh qurollar ham topilgan. Tosh qurollarning shakli va o‘lchamlari O‘rta Osiyoning boshqa joylari bilan o‘xshashliklarga ega. Toshlarning dumaloq tarzda tayyorlanishining birinchi maqsadi to‘g‘irlash (dazmollash), ikkinchisi esa ishchi kuchi (metalga ishlov berish) sifatida foydalanish bo‘lgan. E’tiborli tomoni shundaki, bu tosh qurollar o‘rta asrlarning oxiriga qadar iqtisodiyotda muhim rol o‘ynagan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, arxeologik olimlarning xizmatlari natijasida O‘zbekiston Respublikasida arxeologiya fani yildan yilga tez taraqqiy etib bormoqda. Jumladan, 2006-yilda Kosonsoy arxeologik ekspeditsiyasi Mug‘qal’a shaharchasining sharqiy mudofaa devorida qazuv ishlarini olib bordi. Sharqda joylashgan xandaq devorning tashqi jabhasini va minoraning janubiy qismi bilan

⁴ Матбобоев Б. Х., Шамсиддинов Р. Т., Мамажонов А. Буюк ипак йўлидаги Фарғона шаҳарлари. – “Мерос”. Андижон. 1994 йил. Б – 45.

⁵ Абдуллаев Б. М., Анарбаев А. А. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар (2006-2007) // Археологические работы на Мугкаъла. – Т.: “ФАН”. 2009. – С. 25.

bog'lanish nuqtasini qamrab oladi. Devor ichini qazish materikkacha olib borilgan va shag'al tosh bilan qoplanganligi aniqlangan. Qal'aning qurilishi va ishlash davrini aniqlash uchun keramika mahsulotlari yetarlicha mavjud emas. Qazuv davomida 3m joy o'r ganilganda devor bilan o'ralgan joyda bo'shliqlar aniqlanmaganligi alohida e'tiborni tortgan. L. Gurechivning fikriga ko'ra, "Mudofaa tizimida perimetrlı aloqa xizmat qilgan va tashqi devordagi bo'shliqni qidirmaslik kerak", degan edi. Shunday qilib, arxeologik ishlarning natijalari va tahlillariga ko'ra, bu yodgorlik Turk xoqonligi davrida qurilgan va mustahkamlangan, degan xulosaga kelishlari mumkin.

Vazirlar Mahkamasining "Namangan viloyatining Kosonsoy tumanida "Mug'tepa" arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish majmuasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Bu majmuada ko'rgazma-ekspozitsiya va axborot resurs markazini tashkil etish to'g'risidagi takliflar ma'qullandi. Qarorda asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari ham belgilandi.⁶

"Turizm uchun Kosonsoy tumani kabi jozibali hududni topish qiyin. Tarixiy yodgorliklar bisyor, tabiat betakror, sayyoohlarga sifatli xizmat ko'rsatish uchun infratuzilma yaratilgan. Faqat biz mutasaddilar bu imkoniyatlardan to'laqonli foydalana olmadik va davlat rahbari tomonidan haqli ravishda e'tiroz bildirildi. Endi bu yo'nalishda e'tiborsiz bo'lish va sustkashlik qilishga haqqimiz yo'q", - deydi Kosonsoy tuman hokimi Dilmurod Qodirov.

Dunyodagi har bir yurtning o'ziga xos va qimmatli bo'lgan o'tmishi tuproq yoki suv ostida qolib saqlanib kelyapdi. Yuqorida qonun va qarorlar esa shunday o'tmishlarni yuzaga chiqarib, aholiga va kelajak avlodga boy tarixdan xabar berish maqsadida chiqarilgan. Imkoniyatlar yanada kengaytirilishi va o'z soxasining mutaxassislari bundan unumli foydalana bilishi zarur. So'ngi yillarda arxeologiya soxasida bo'layotgan imkoniyatlar o'tmishning qanchadan-qancha sirli tarixini bilib olish uchun keng yo'l ochib bermoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Anorboyev A. Farg'onaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyoda tutgan o'rni. – T.: "FAN". 2022. – 144 b.
2. Alimova R., Is'hoqov M. Axivshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: 2017.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Tom – 5. – "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.:2000.
4. Абдуллаев Б. М., Анарбаев А. А. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар (2006-2007) // Археологические работы на Мугкалья. – "ФАН". Т.: 2009.
5. Матбобоев Б. Х., Шамсиддинов Р.Т., Мамажонов А. Буюк ипак йўлидаги Фарғона шаҳарлари. – Андижон: "Мерос". 1994.

⁶ Batafsil qarang: <https://lex.uz/ru/docs/-3779230> (foydalanilgan sana: 30.07.2024)

6.<https://lex.uz/ru/docs/-3779230>

7.<https://daryo.uz/2022/09/21/turizm-uchun-aslida-kosonsoydan-jozibali-hududni-topish-qiyin-imkoniyatlaridan-unumli-foydalanmagani-uchun-sinov-muddati-belgilangan-kosonsoy-hokimining-xulosalari>

8.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mug'%CA%BB_qal%CA%BCa#

9.<https://academy.uz/uz/page/pdf/qadimgi-koson-tarixi-mugtepa-va-mugqala>